



SOTSIOLINGVISTIKA VA DIALEKTOLOGIYA

Xamrayeva Nilufar Xamidullayevna

Dotsent.

Olimova Moxinur Islomjon qizi

Student:

Named after Islam Karimov

Tashkent State Technical University

Teacher of the Foreign Languages Department:

mbganikhanova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7680863>

Abstrakt: Dunyo tillarining, ma'lum ma'noda, o'ziga xosligini yorituvchi, muayyan tilning boshqa tillardan farqli jihatlarini ko'rsatuvchi tadqiqotlar yaratilgan. Mazkur tadqiqotlarning bosh masalasi til va jamiyat munosabati talqinidir. Tilning jamiyat bilan bog'liq tomonlarini o'rganish tilning o'ziga xos ichki qurilishi, imkoniyatlarini yoritishda ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: dialektologiya, o'xshatish, sotsiolingvistika, maqol, xususiyat, termin, metal, milliy.

Abstract: Researches have been created that shed light on the uniqueness of the languages of the world, in a certain sense, and show the different aspects of a particular language from other languages. The main issue of these studies is the interpretation of the relationship between language and society. Studying aspects of the language related to society is important in elucidating the unique internal structure and possibilities of the language.

Key words: dialectology, analogy, sociolinguistics, proverb, feature, term, metal, national.

Аннотация: Созданы исследования, которые проливают свет на уникальность языков мира, в определенном смысле, и показывают отличия того или иного языка от других языков. Основной проблемой этих исследований является интерпретация отношений между языком и обществом. Изучение аспектов языка, связанных с обществом, важно для выяснения уникальной внутренней структуры и возможностей языка.

Ключевые слова: диалектология, аналогия, социолингвистика, пословица, признак, термин, металл, народность.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida aloqa-munosabat vositasi bo'lgan tilning jamiyatga bo'lgan nisbatini turlicha izohlashgan. Har xil fikrlar, turli nazariyalar vujudga kelgan. Ba'zi guruhlar tilni tirik organizm sifatida tushunishgan. Ba'zilari o'zgarmas voqelik sifatida qarashgan. Bunday qarashlarni tanqidiy-tahliliy ravishda o'rganib, quyidagicha umumlashtirish mumkin:



- 1.Til tabiiy-biologik hodisa emas.
- 2.Tilning mavjud bo'lishi va uning taraqqiyoti tabiat qonunlariga bog'liq emas.
- 3.Til kishilarning tabiatiga, irqiga, nasliga aloqador emas.
- 4.Jamiyat bo'lib uyushgan kishilargina aloqa-munosabat vositasi bo'lgan tilga ega. Til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi tarixiyijtimoiy tajribasi asosida yuzaga kelgan ijtimoiy hodisadir. Til va jamiyat taraqqiyoti uzviy bog'liqdir. Jamiyatda ro'y beradigan har qanday voqelik, ma'lum ma'noda tilda o'z ifodasini topadi. Tilning ijtimoiy tabiati uning jamiyatda mavjud bo'lishi hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qilishida namoyon bo'ladi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini tahlil qiluvchi asosiy soha hisoblanadi¹.

Shuningdek ushbu fan tillar tipologiyasi muammosi bilan ham shug'ullanadi.Tillarning sotsiolingvistik tipologiyasi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini inobatga oluvchi tipologiyadir.Bunday tipologiyaga to'rt mezon asos qilib olinadi:

- 1.Standartlashtirish - bunda ma'lum bir tilda gaplashuvchilar tomonidan qabul qilingan adabiy til tushuniladi. Stansartlashtirishning asosiy omili tilning grammatikasini va lug'atini yaratishdir.
- 2.Hayotiylik-bunda ma'lum bir tilde gaplashuvchi jamiyatning bor-yo'qligi inobatga olinadi.
- 3.Tarixiylik-bundama'lum bir tilning jamiyat tomonidan ishlatilishi natijasida uning mo'tadil,bir tekis rivojlanib turishi nazarda tutiladi.
4. Avtonomik-bunda ma'lum ijtimoiy guruh uchun ona tili sifatida xizmat qilayotgan u yoki bu til boshqa tillardan tuzilishi jihatdan tubdan farq qilishi yoki bir tilning variant sifatida namoyon bo'lishi tushuniladi.Masalan, o'zbek,qirg'iz,qozoq, qoraqalpoq tillari o'zaro qiyoslanganda ular orasidagi fonetik,leksik,Grammatik farqlar ham ko'zga tashlanadi, ya'ni bu tillar avtonom,mustaqil tillar degan xulosa kelib chiqadi².


Yuqorida keltirilgan tipologik xususiyatlardan kelib chiqib,tillarning sotsiolingvistik tasnifi amalga oshiriladi.Hozirgi zamon tilshunos olimlari tillarni sotsiolingvistik jhatdan quyidagi 7 tipga ajratadi:Standart tillar, Kreol tillar, Mahalliy tillar, Klassik tillar, Pijin tillari, sun'iy tillar va dialekt ³.

Hozir aynan dialekt haqida to'xtalib o'tamiz. Dialekt so'zi grek tilidan olingan bo'lib,sheva lahja ma'nolarini ifodalaydi.Umumxalq tilining hududiy,ijtimoiy jihatdan umumiylikka ega bolgan kishilar foydalanadigan ko'rinishidir, shu jihatdan ham dialektlar sotsiolingvistikani asosi deyishimiz mumkin.

¹ Xolmonova Z "Tilshunoslikka kirish " Ma'ruzalar matni. –T. 2000. –B. 46

² Nosirjon Uloqov.Tilshunoslik nazariyasi.-Toshkent 2016, -b.29

³ Nosirjon Uloqov.Tilshunoslik nazariyasi.-Toshkent 2016, -b.30-31



Bu borada bir qancha tilshunos olimlar tadqiqot olib borishgan. Xususan, XX asrning 20-yillaridan Yevropa va rus tilshunoslari tomonidan bu muammoga qiziqish jiddiy tus ola boshladi. Ayniqsa sotsiumning nutqini ijtimoiy lingvistika nuqtai nazaridan tasnif qilish, shahar va qishloq aholisi nutqining farqli parametrlari, hunarmandlar, ishchilar, jinoiy guruhlar nutqining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha qator ishlar yuzaga kela boshladi. Yirik sotsiolingvistlar jamiyat va til o'rtasidagi mutanosiblik, so'zlovchi va til orasidagi bog'liqlik muammolari ustida jiddiy izlanishlar olib bordilar. Ular tilning ichki struktural qonuniyatlaridan tashqari, so'zlovchining ana shu tildan qay tarzda foydalanishiga, tilning hududiy xoslanishi bilan birga sotsial jihatdan ham farqlanishga ega ekanligini e'tirof eta boshladilar.

Chunonchi, mashhur tilshunos olim V.M.Jirmunskiy jamiyatdagi mavjud tilning hududiy dialektlarga bo'linishidan tashqari o'z navbatida, sotsial dialektlarga ham bo'linishini ta'kidlab, shunday yozadi: "Har qanday tilda hududiy dialektologiya mavjud ekan, unda sotsial dialektologiya ham bo'lishi kerak" ⁴. Ba'zi bir olimlar mahalliy dehqonlar nutqini "shartli til" deb ataydilar. U tilning mavjud shaklidan (shu qatorda adabiy tilning kitobiy shakli ham) tortib to tilning ma'lum ijtimoiy xoslanishiga ega bo'lgan konspirativ argo (shartli til) va mexanik shifrofkaga ega yosh bolalar tiligacha o'z ichiga oladi. Umumlashtirib aytganda, tilning barcha ijtimoiy asos bilan chegaralangan xosila ko'rinishlarini sotsial dialekt tarkibiga kiritish mumkin.

Agar hududiy dialektlar bir turda so'zlashuvchi xalqning geografik jihatdan ajralib qolishidan yuzaga kelsa, sotsial dialektlar bir tilda so'zlashuvchilarniung jamiyatdagi ijtimoiy tabaqa va soha, mutaxassislik, yosh, jins jihatdan ajralib qolishdan paydo bo'ladi. Boduen de Kurtene ta'kidlaganidek, so'zlashuvchining geografik va sotsial jihatdan farqlanishi tilning gorizontal va vertikal bo'linishini hosil qiladi ⁵. Boshqacha aytganda, hududiy jihatdan har xillik tilning gorizontal bo'linishini ijtimoiy jihatdan har xillik esa tilning vertikal bo'linishini ko'rsatadi. Shunday ekan, sotsial dialektni belgilashda so'zlashuvchi sotsiumning muayyan ijtimoiy yoki kasbiy guruh tarkibiga kirishi, bir korporatsiya a'zolari sifatida birlashishi, ijtimoiy tabaqasi, yoshi, jinsi, estetik, ma'daniy ko'rinishi e'tiborga olinishi lozim.

Ayrim olimlar sotsial dialektning ma'lum jamoa yoki ijtimoiy guruh a'zolari tomonidan foydalanuvchi tilning variantlari sifatida baholaydilar. Bu miuammoga sotsiolingvist V.D.Bondaletov asosli dalillar bilan aniqlik kiritadi. U

⁴ Вопросы социальной лингвистики. Л. 1969. стр. 23

⁵ Бодуэн дэ Куртене И.А. Языкознание. Избранные труды по общему языкознанию. Б.П.М. 1963. с. 91



sotsial dialekt kategoriyasiga kiruvchi tilning barcha koʻrinishlari aniq ijtimoiy asoslangan chegaraga egaligi va muloqot vositasi sifatida alohida ijtimoiy tabaqa, kasb-hunar va yosh jihatdan birlashuvchi jamoalar tomonidan amalga oshirishini taʼkidlab quyidagi guruhlariga ajratadi.

1) Kasbning “xususiy” tili. (Aniqrogʻi, kasbning leksik tizimi, masalan, ovchilar, kulollar, duradgorlar, kunchi-kosiblar, choʻponlar, savdogarlar, shuningdek, boshqa hunar va mashgʻulotlar).

2) Guruhlar yoki korparativ (maʼlum doiraga ega) guruhlar tili (Masalan, talabalar, sportchilar, soldatlar kabi yoshga oid jamoalardagi jargonlar).

3) Hunarmandlar, savdogarlar va shunga yaqin ijtimoiy guruhlarining shakliy tillari (Argo).

4) Ijtimoiy hayotdan tamoman uzilgan, sinfsizlashgan tuban kishilar jargoni (Argo).

Tilshunoslikda muayyan ijtimoiy guruh kishilari foydalanadigan tilga dialekt deb taʼrif beriladi, zero, har qanday ijtimoiy soha (kasb) sotsial xoslanishga ega ekan, ana shu ijtimoiy soha kishilarining nutqi ham, albatta, sotsial xoslanishga ega boʻladi. Muammoga ana shu nuqtai nazar bilan qaraganda maʼlum ijtimoiy soha kishilari foydalanadigan tilni toʻlaqonli ravishda sotsial dialekt deb atash mumkin.

Oʻzbek tilshunosligida dialektlarga, asosan, diaxronik aspektda yondashilib, bu dialektda adabiy tilning nisbatan eski shakllari saqlanib qolgan deb gapirib keldilar. Sotsiolingvistika gapiruvchilar tomonidan amalga oshiriladigan munosabatlarni ifodalashga urinib, ekstralingvistik mezonlar bilan sinxron yondashuvdan foydalanishga harakat qiladi.

Oʻzbeklar tabiatan mehmondoʻst, ochiqkoʻngil boʻlganliklari uchun boʻlsa kerak, koʻpincha notanish kishilarga ham qarindosh urugʻ nomlarini aytib murojaat etadilar, yaʼni, *“togʻa”*, *“amaki”*, *“bobo”*, *“xola”* kabilar.

Umuman olganda, murojaat etiketning eng muhim koʻrinishlaridan biri boʻlib, u turli dialektlarda oʻziga xos koʻrinishlarga egadir. Buni bilmaslik esa kommunikantlar oʻrtasida turli tushunmovchiliklar va noroziliklarga sabab boʻlishi mumkin.

Tilshunos olim E.Begmatovning “Nomlar va odamlar” kitobida taʼkidlanishicha, qadimdan turkiy xalqlarga kishining ismiga hurmat bilan munosabatda boʻlish mazkur shaxsning oʻziga nisbatan hurmat va ehtirom belgisi sifatida qabul qilingan. Bunday hurmat izhor etishning asosiy yoʻli esa kishi ismini aytib chaqirmaslikdir.



Shunga ko’ra turkiy xalqlarning ko’pchiligida yoshlar o’zidan kattalarning, xotin esa erining, shuningdek, er xotinning ismini atashi mumkin emasligi xususidagi rasm-rusumlar shakllangan. Bunday intizomga ayniqsa ayollar odob yuzasidan qattiq rioya qilganlar. O’tmishda shakllangan va hozir ham qaysidir regionlarda amalda bo’lgan bunday rasm-rusumlarni bilmaslik yoki amal qilmaslik esa yuqoridagi singari noqulayliklarga sabab bo’ladi. Nutqda murojaat shakllarining bir ko’rinishi “sen” va “siz” so’zlarining qo’llanishida ham hududiy farqlanishlar kuzatiladi va buni tilshunos bobokalonimiz M.Koshg’ariy ham o’z vaqtida qayd etib o’tgan edi. “Sen turklar bu so’zni kichiklarga, xizmatchilarga hamda so’zlovchidan daraja, martaba, yoshda quyi bo’lgan kishilarga nisbatan aytadilar. O’zlaridan yuqori hurmatli kishilarga “siz” deydilar, og’zaki nutqlarida aksincha qo’llaydilar, ya’ni kattalarga “san”, kichiklarga “siz” deb qo’llaydilar”⁶.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. O’zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. Mirzayev,A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; Mas’ul muharrir: Sh.Turdimov. — T.: Sharq, 2005. — 7-8 b.
2. Panos Karagiorgos. Greek and English Proverb // Cambridge Scholars Publishing Lady Stephenson Library. - Newcastle upon Tyne, UK., 2015.
3. Meider, W, Dundes, A.The Wisdom of Many: Essays on the Proverb, (Ed). – NewYork, Garland. 1995.
4. Brown H.D. Principles of language learning and teaching. - Englewood Cliffs, New Jersey. 1994.
5. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi // O ‘quv qo'llanma. — T., 2006.
6. Ganikhanova M. ISSUES OF LINGUISTICS //Интернаука. – 2018. – №. 7-2. – С. 30-31.
7. Ganixanova M. Language as a Cultural Mystery: When and how did Language evolve? //Multidisciplinary International Journal of Research lines and Projects. – 2022. – T. 13. – С. 11-16.
8. Ганиханова М. Б. Методика обучения английскому языку студентов технического направления на основе медиатехнологий //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 1 (134). – С. 60-63.
- 9.
10. Ganikhanova M. SEMANTIC TEACHING AND VOCABULARY LEARNING IN LANGUAGE LEARNING //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2023. – Т. 5. – №. 5.
11. Ganikhanova M., Saydikramova U., Khamraeva N. Features Neoteric Of Teaching Foreign Languages Making Use Of Hi-Tech Technologies For Students

⁶ DLT.I.326-bet





Of Polytechnic Higher Education Establishments In The Republic Of Uzbekistan
//International Journal of Scientific and Technology Research. – 2020. – T. 9. –
№. 4. – C. 3220-3225.

12. Ganikhanova M. B. MODERN METHODIC OF TEACHING FOREIGN
LANGUAGES WITH USING INNOVATIVE MEDIA TECHNOLOGIES FOR STUDENTS
OF TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 10. – C. 307-311.

13. Imamova Z. T. WHY FOREIGN LANGUAGE IS IMPORTANT FOR
ENGINEERS? //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. –
№. 1. – C. 88-91.

